

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАҲСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
АНДИЖОН МАШИНАСОЗЛИК ИНСТИТУТИ

МАШИНАСОЗЛИК
ИЛМИЙ-ТЕХНИКА ЖУРНАЛИ

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
АНДИЖАНСКИЙ МАШИНОСТРОИТЕЛЬНЫЙ ИНСТИТУТ

НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
МАШИНОСТРОЕНИЕ

MINISTRY OF HIGER AND SECONDARY SPECIALIZED
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
ANDIJAN MACHINE-BUILDING INSTITUTE

SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL
MACHINE BUILDING

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси (ОАК) Раёсатининг 2021-йил 30-декабрдаги 310/10-сон қарори билан Андижон машинасозлик институтининг “Машинасозлик” илмий-техника журнали “ТЕХНИКА” ва “ИҚТИСОДИЁТ” фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ва фан доктори (DSc) илмий даражасига талабгорларнинг диссертация шилари юзасидан асосий илмий натижаларини чоп этиши тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ушбу журналда чоп этилган материаллар таҳририятнинг ёзма рухсатисиз тўлиқ ёки қисман чоп этилиши мумкин эмас. Таҳририятнинг фикри муаллифлар фикри билан ҳар доим мос тушмаслиги мумкин. Илмий-техника журналида ёзилган материалларнинг ҳаққонийлиги учун мақоланинг муаллифлари масъулдирлар.

| | |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Quyosh havo qizdirgich qurilmalarining samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar Uzbekov Mirsoli Odiljonovich, Boynazarov Bekzod Baxtiyorovich | 71 |
| Methodology for designing an autonomous solar power plant for energy saving and increasing energy efficiency at “BMAX BULDING MATERIALS” enterprise Mirzoyev Narzullo Nuriddinovich, Makhsudov Mokhirbek Tolibjonovich | 78 |
| Chiqindi parlardan muqobil energiya manbalari sifatida foydalanish istiqbollari Turg'unova Nodira Baxadirovna | 86 |
| Elektr energiyasi sifat ko'rsatkichlarining o'zgarishini sanoat korxonalaridagi elektr qurilmalarining resurs tejamkorligiga ta'siri Xolmatov Behzodjon Baxodirovich | 94 |
| Dvigatellarning yuklama diagrammalari va ularning quvvatini tanlash Zokirova Irodaxon Zakrullayevna, Yunusov Ilhomjon Ismoiljon o'g'li | 100 |
| Системный анализ и классификация типичных дефектов и неисправностей и электрических приводов переменного тока с трехфазными асинхронными двигателями при высокоскоростном движении, ориентированных на их диагностику Якубов Миржалил Сагатович, Сагатова Муборак Абдумалик Кизи | 107 |
| ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИ МЕХАНИЗАЦИЯЛАШ ТЕХНОЛОГИЯСИ | |
| Qishloq xo'jaligi texnikalari parkini innovatsion texnik tizimlar asosida boshqarish va texnikaviy xizmatlar ko'rsatish mexanizmini takomillashtirish Igamberdiev Asqar Kimsanovich | 113 |
| Sifat menejmentining sodda statistik usullari A.A.Mamajonov, Z.F.Xamrakulova | 123 |
| Tolali chiqindilarni turlari va ularni tozalash uskunalarini analitik taxlili Muminov Ulug'bek Mamitbekovich, Muminova Guzalxon Usupjonovna | 134 |
| Methods of obtaining quality raw silk by modifying cocoon raw materials with surfactants Xamrakulova Zarnigor, Muminov Omadjon, Sulaymonov Sharifjon | 140 |
| Ta'minlagichning gorizontal lenta yuzasida paxta qatlamini tekislash jarayonini o'rghanish Toxirova Maftuna Umidjon qizi, Kosimov Xusanboy Xaydarovich, Muradov Rustam Muradovich, Sarimsaqov Olimjon Sharipjanovich | 149 |
| Don mahsuloti namlik ko'rsatkichini aniqlashda metrologik kuzatuvchanlik va uni ta'minlash Xamdamov Baxrom Raimjonovich, Abdujabborov Obidjon Oribjonovich | 155 |

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШИНИ МЕХАНИЗАЦИЯЛАШ ТЕХНОЛОГИЯСИ.

Igamberdiev Asqar Kimsanovich

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti professori, texnika fanlari doktori

e-mail: asqar1959@mail.ru,

тел: +998946412498

QISHLOQ XO‘JALIGI TEXNIKALARI PARKINI INNOVATSION TEHNİK TIZIMLAR ASOSIDA BOSHQARISH VA TEKNIKAVID XIZMATLAR KO‘RSATISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

УПРАВЛЕНИЕ ПАРКОМ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ТЕХНИКИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНИЧЕСКИХ СИСТЕМ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМА ОКАЗАНИЯ ТЕХНИЧЕСКИХ УСЛУГ

MANAGEMENT OF THE FLEET OF AGRICULTURAL MACHINERY ON THE BASIS OF INNOVATIVE TECHNICAL SYSTEMS AND IMPROVEMENT OF THE MECHANISM FOR PROVIDING TECHNICAL SERVICES

Annotation

Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi texnikalari parkini innovatsion texnik tizimlar asosida boshqarish va texnikaviy xizmatlar ko‘rsatish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Jumladan, paxtachilik-to‘qimachilikka ixtisoslashgan klasterlarning qishloq xo‘jalik texnikalari parkini innovatsion texnik tizimlar asosida boshqarish zarurati borligi e’tirof etilgan. Ushbu tizimlarga texnikaviy xizmatlar ko‘rsatish (texnikalardan foydalanish, reglamentli texnik xizmat ko‘rsatish, saqlash), texnik servis (dilerlik) ko‘rsatish (mobil va muqim xizmatlar ko‘rsatish, ehtiyyot qismlar bilan ta’minlash), texnikalarni qayta tiklash (nosoz texnikalarni sotib olish, butlash, va qayta sotish, detallar va ehtiyyot qismlar resursini tiklash, detallar va ehtiyyot qismlarni almashitirish va sotish), ilm-fan va ishlab chiqarishni integratsiyalash (innovatsion texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishda qo‘llash, ilm-fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish, yangi innovatsion texnika va texnologiyalarni targ‘ib etish) bo‘limlarini joriy etish tavsiya etilgan.

Аннотация

В данной статье даны рекомендации по управлению парком сельскохозяйственной техники на основе инновационных технических систем и совершенствованию механизма оказания технических услуг. В частности, признается необходимость управления парком сельскохозяйственной техники кластеров, специализирующихся на хлопково-текстильном производстве на основе

инновационных технических систем. Инновационным техническим системам рекомендуется внедрить отделы технических услуг (эксплуатация парком сельскохозяйственной техники, регламентное обслуживание и хранение), отделы технического (дилерского) сервиса (оказание мобильных и стационарных услуг, обеспечение запасными частями), отделы услуги по восстановлению сельскохозяйственной техники и оборудования (покупка, ремонт и перепродажа неисправной техники и оборудования, восстановление ресурсов деталей и запасных частей, замена деталей и запчастей и продажа), отделы интеграция науки и производства (применение в производство инновационной техники и технологий, внедрение в производства достижения науки и техники, реклама новой инновационной техники и технологии).

Abstract

This article provides recommendations for managing the fleet of agricultural machinery based on innovative technical systems and improving the mechanism for providing technical services. In particular, the need to manage the fleet of agricultural machinery of clusters specializing in cotton and textile production based on innovative technical systems is recognized. Innovative technical systems are recommended to introduce technical service departments (operation of the agricultural machinery fleet, routine maintenance and storage), technical (dealer) service departments (provision of mobile and stationary services, provision of spare parts), service departments for the restoration of agricultural machinery and equipment (purchase, repair and resale of faulty machinery and equipment, restoration of resources of parts and spare parts, replacement of parts, spare parts and sale), departments of integration of science and production (application of innovative equipment and technologies in production, introduction of achievements of science and technology in production, advertising of new innovative equipment and technology).

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi texnikalari parki, texnik tizim, texnikaviy xizmat, klaster, servis, resurs, tiklash, sotish.

Ключевые слова: парк сельскохозяйственной техники, техническая система, кластер, сервис, ресурс, восстановление, продажа.

Keywords: agricultural machinery park, technical system, cluster, service, resource, restoration, sale.

Kirish. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonida har bir yetishtirilayotgan ekin turining agrotexnikasini inobatga olgan holda unga xos bo‘lgan turli qishloq xo‘jaligi texnikalari parki qo‘llaniladi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar ehtiyojlaridan kelib chiqib qishloq xo‘jaligi texnikalari parki ta’minoti, ularning foydalanishdagi texnik holati yaroqliliginini ta’minlashlari uchun joylarda servis masalalariga alohida e’tibor berilishi kerak [1,2,3].

Odatda qishloq xo‘jaligi texnikalari servisi - texnikalar savdosi, ehtiyyot qismlar ta’minoti, logistika, texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash hamda sifat tahlili xizmatlaridan iboratdir.

Bu masalada muammo shundaki, qishloq xo‘jaligi texnikalari servisi texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash ishlari uchun yetarli texnologik jihozlar hamda mutaxassislarining yetishmovchiligi, ixtisoslashmagan sharoitda amalga oshirilishi ularning ishga yaroqligi bo‘yicha sifat ko‘rsatgichlarining pastligi bilan bir vaqtida bajarilgan ishlar tannarxining ortib ketishiga sabab bo‘lmoqda [4, 5].

Ma’lumotlarga ko‘ra, mexanizatsiyalashgan dala ishlarini bajarishda ish vaqtining 2/3 qismini yo‘qotilishi qishloq xo‘jaligi texnikalari texnik qarovi va ta’mirlash ishlaring qoniqarsiz tashkil etilishi hisobiga sodir bo‘ladi [6,7]. Buning uchun IT texnologiyalari qo‘llanilgan zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnikalari servisini amalga oshiruvchi master yoki injener malakasiga ega bo‘lgan malakali xodimlarga bo‘lgan zarurat sezilmoqda.

Yetakchi xorij davlatlari, xususan Yevropa Ittifoqi va AQSHda qishloq xo‘jaligi texnikalari servisi ixtisoslashgan firmalar tomonidan amalga oshiriladi. Bu davlatlarda aksariyat fermerlar o‘zlarining servis ob’ektlariga ega emas. Qishloq xo‘jaligi texnikalari servisi dilerlar tomonidan amalga oshiriladi.

Xozirgi kunda qishloq xo‘jaligi texnikalari parkidan foydalanishda avvalo ularning foydalanish ko‘rsatgichlarini yaxshilash, ish unumini oshirishning eng zamonaviy usullardan foydalanish hamda bajariladigan ishlarning tashkil etishning yangi tartib va qoidalarini ishlab chiqarishga joriy qilinishi talab etiladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, Respublikamiz agrar sohasi uchun qishloq xo‘jalik texnikalarini ishlab chiqarish, yetkazib berish, texnik xizmat ko‘rsatish hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga mexanizatsiyalashgan texnikaviy xizmatlar ko‘rsatishning yagona o‘zaro bog‘langan tizimi yaratilgan va qishloq xo‘jaligi korxonalari, tashkilotlar qishloq xo‘jalik texnikalari parklarini qayta jihozlashga erishgan.

Shunga qaramasdan, qishloq xo‘jalik texnikalari parklarining texnikaviy va texnologik xizmatlar ko‘rsatish faoliyatini takomillashtirish talab etilmoqda. Bundan tashqari qishloq xo‘jaligini ishlab chiqarishini to‘la mexanizatsiyalash, texnikalardan samarali foydalanish, agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida sifatlari bajarish, nazorat qilish, agregatlarni agrotexnik talablarga mos rostlash, foydalanish ko‘rsatkichlarini tahlil qilish, nosozliklarni operativ bartaraf etish, diagnostikalash va to‘g‘ri saqlash kabi ko‘p muammolar o‘z yechimini to‘la topa olmayapdi.

Tadqiqot uslubi. Respublikamiz qishloq xo‘jaligi “Klaster” tizimiga o‘tganligi sababli mavjud qishloq xo‘jaligi texnikalari parki yangilandi. Yangilangan qishloq xo‘jaligi texnikalari parki aynan klasterlarda to‘la shakllantirildi. Biroq, yangi texnikalarning konstruksiyalarida kengroq gidravlik va elektr uzatmali avtomatik boshqaruv va elektronika (bort kompyuterli) tizimlari keng qo‘llanilmoqda. Texnik jihatdan zamonaviy, o‘ta murakkab konstruksiyaga ega bo‘lgan bunday texnikalarni samarali boshqarishning texnik servis va innovatsion texnologiyalar asosida amalga oshirish uslubi tavsiya etiladi. Aynan “Klaster”

tizimi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun zarur zamonaviy kishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta’minalash va ulardan samarali foydalanish zaruratini belgilab beradi.

Tahlillar va natijalar. Ma’lumki, qishloq xo‘jaligi texnikalari parkining son va sifat miqdori yer maydoniga, faoliyat yuritadigan xo‘jalikning joylashuvi va tuproq-iqlim sharoitiga bog‘liq. Oxirgi yillarda tashkil etilgan, faoliyat yuritayotgan qishloq xo‘jaligi klasterlarining nomi, joylashgan o‘rnini va maydonlari quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan

Faoliyat yuritayotgan qishloq xo‘jaligi klasterlari

| № | Paxtachilik klasteri nomi | Tashkil etilgan tuman nomi | Tashkil etilgan klasterlar maydoni, ga |
|--------------------------------------|---------------------------------|----------------------------|----------------------------------------|
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | | | |
| 1 | “Boston klaster” MCHJ | Ellikqal‘a | 11040 |
| 2 | “Amudaryotex” MCHJ QK | Amudaryo | 7000 |
| 3 | “Beruniy klaster” MCHJ | Beruniy | 10275 |
| Andijon viloyati | | | |
| 4 | “Xanteks” MCHJ | Qo‘rg‘ontepa | 8186 |
| 5 | “Digital Prime Textile” MCHJ | Baliqchi | 10489 |
| 6 | “SAYYORA FAVVORASI” XK | Bo‘z | 5400 |
| 7 | “Xo‘jaobod Fayz-M” XK | Xo‘jaobod | 2131 |
| 8 | “Vodiy Sanoat Faxri” MCHJ | Ulug‘nor | 9014 |
| 9 | “Marhamattekstil” MCHJ QK | Marhamat | 5092 |
| 10 | “Best Textile International”, | Izboskan | 7988 |
| 11 | “Sohib Omad Barakasi” MCHJ | | |
| 12 | “Saxovat teks” MCHJ | Shaxrixon | 7345 |
| 13 | “Al‘yorteks” MCHJ QK | Jalaquduq | 4720 |
| Buxoro viloyati | | | |
| | | Vobkent | 10400 |
| | | G‘ijduvon | 9800 |
| | | Kogon | 3600 |
| 14 | “Buhoro Agro Klaster” MCHJ | Shofrikon | 6000 |
| | | Buxoro sh | 200 |
| | | Qoravulbozor | 5200 |
| | | Peshku | 8500 |
| | | Jami | 43700 |
| 15 | “BST Cluster” MCHJ | Romitan | 7450 |
| 16 | “Merganteks” MCHJ | Qorako‘l | 6000 |
| 17 | “Parvoz Humo Ravnaq Trans” MCHJ | Olot | 8000 |
| 18 | “QORAKO‘L KUMUSH KALAVA” MCHJ | Qorako‘l | 2000 |

| | | | |
|-----------------------------|---------------------------------------------------------|----------------------------|-------|
| 19 | “BAHOR CHANCE TEXTILE” MCHJ | Kogon | 3000 |
| 20 | “WBM Romitex” MCHJ | Buxoro, Jondor, Romiton | 23800 |
| 21 | “BUXORO ZARHAL TEKS” MCHJ | Shofirkon | 3000 |
| Jizzax viloyati | | | |
| 22 | “Jizzax Industrial To‘qima” MCHJ | Sh.Rashidov | 5000 |
| 23 | “Jizzax Kenteks” MCHJ | Zafarobod | 8100 |
| 24 | “Sangzor-textile” MCHJ | Do‘sntlk | 8000 |
| 25 | “SILVERLEAFE VMV AGRO TRADE” MCHJ | Paxtakor | 2000 |
| 26 | “Hayotbek textil” MCHJ | Sh.Rashidov | 2200 |
| Qashqadaryo viloyati | | | |
| 27 | “Guzor Tekstil Impeks” MCHJ | Mirshikor | 14026 |
| 28 | “Bunyodkor” MCHJ | Koson | 2000 |
| 29 | “Oq saroy textile” MCHJ, (“Oq saroy klaster” MCHJ) | Shaxrisabz Qamashi | 12800 |
| 30 | “Shaxrisabz Tekstil” MCHJ, (“Oq saroy klaster” MCHJ) | Yakkabog‘ | 6900 |
| 31 | “Sulton Teks Group” MCHJ | Qarshi | 10000 |
| 32 | “Indorama” MCHJ XK (Singapur) | Kasbi, Nishon | 25000 |
| Navoiy viloyati | | | |
| 33 | “Navbaxor tekstil” MCHJ | Navbahor Konimex | 8287 |
| 34 | “Baxt tekstil” MCHJ | Qiziltepa Xatirchi | 25513 |
| Namangan viloyati | | | |
| 35 | “Textile Finance Namangan” MCHJ XK | Uchqo‘rg‘on | 9836 |
| 36 | “Toshbuloq Teks” MCHJ | Namangan | 6050 |
| 37 | “Namangan To‘qimachi” MCHJ | Chortoq, Chust | 5071 |
| 38 | “Namangan Momiq Sochiqlari” MCHJ | Mingbuloq | 12916 |
| 39 | “Uztex Uchkurgan” MCHJ QK | Norin | 6338 |
| 40 | “Uchkurgan Textile” MCHJ | Uychi | 6269 |
| Samarqand viloyati | | | |
| 41 | “Marokand Sifat” MCHJ | Narpay | 7136 |
| 42 | “Ziyovuddin tekstil” MCHJ | Paxtachi | 8200 |
| 43 | “Kattao‘rg‘on klaster” MCHJ | Kattaqo‘rg‘on | 11600 |
| 44 | “Samarqand Kamalak Invest tekstil” MCHJ | Pastdargom Nurobod | 10900 |

| | | | |
|----------------------|--------------------------------------------------------------|----------------------------|-------|
| 45 | “Samarqand kotton klaster” MCHJ | Payarik | 13800 |
| 46 | “Marokand Sifat Tekstil” MCHJ | Ishtixon | 8600 |
| 47 | “Amin invest international” va “Artek International” MCHJ QK | Pastdargom | 6500 |
| 48 | “Koreya Samarqand” MCHJ | Oqdaryo | 5300 |
| Toshkent viloyati | | | |
| 49 | “ABC Oqqa‘rg‘o’n Agro Classter” MCHJ | Oqqa‘rg‘on | 12700 |
| 50 | “Maxim Gold Tex” MCHJ | Buka | 13925 |
| 51 | “Kukcha tekstil” MCHJ | O‘rta Chirchiq | 8589 |
| 52 | “Nature Cotton” MCHJ XK | Piskenet | 8406 |
| | (“AGRO TEKS ALLIANCE” MCHJ) | | |
| 53 | “Textile Technologies Group” MCHJ XK | Chinoz | 6400 |
| 54 | “TST Klaster” MCHJ | Quyi Chirchiq | 13200 |
| Farg‘ona viloti | | | |
| 55 | “RusUzbekteks” MCHJ | Rishton | 6245 |
| 56 | “BAXODIR LOG‘ON TEKSTIL” QK | Yozyovon | 5390 |
| 57 | “Fergana Oseana” MCHJ QK | Farg‘ona | 6500 |
| 58 | “Bulut Textile” MCHJ | O‘zbekiston | 4725 |
| 59 | “Fergana Spinning” MCHJ | Bog‘dod | 5200 |
| 60 | “EXPO KOLLOR PRIN TEKS” MCHJ | Toshloq | 5195 |
| 61 | “Global tekstil solushn” MCHJ QK | Qo‘shtepa | 8000 |
| 62 | “Real Trans Logistik” MCHJ | Uchko‘prik | 5700 |
| Xorazm viloyati | | | |
| 63 | “Textile Finance Xorazm” MCHJ XK | Shovot | 9188 |
| 64 | “Xorazm Tex” MCHJ | Xanka | 10200 |
| 65 | “Khiva Cluster” MCHJ | Xiva | 5600 |
| 66 | “Great Cotton export” MCHJ | Xozarasp | 2400 |
| 67 | “Shovot Tekstil” MCHJ QK | Yangibozor | 8705 |
| 68 | “Kobotex” MCHJ QK | Bog‘ot | 6600 |
| Surxondaryo viloyati | | | |
| 69 | “Surxondaryo agro xizmat” MCHJ | Angor, Qizirik | 6000 |
| 70 | “Shoshmoxkashshob” MCHJ | Uzun, Oltinsoy | 6600 |
| 71 | “Chinoz Textile” MCHJ | Sho‘rchi | 7100 |
| | “Billur Teks” MCHJ | | |
| 72 | “SURXON SIFAT TEKSTIL” MCHJ | Denov | 10538 |
| 73 | “Termiz Jayxun klaster” MCHJ | Jarqo‘rg‘on Qumqo‘rg‘on | 7100 |
| 74 | “Guzor Tekstil Impeks” MCHJ | Angor | 14026 |

| Sirdaryo viloyati | | | |
|-------------------|------------------------------|----------------------|-------|
| 75 | “BEK Sluster” MCHJ | Mirzaobod, Xovos | 14200 |
| 76 | “Indorma” MCHJ XK(Singapur) | Sardoba, Oq-Oltin | 25000 |
| 77 | “Boyovut Texno klaster” MCHJ | Boyovut | 10500 |
| 78 | “Poli teks” MCHJ | Sayxunobod | 3030 |

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi klasterlari mamlakatlar iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etishi xorijda qishloq xo'jaligida faolit yuritayotgan klasterlar bo'yicha tadqiqot olib borgan A.A. Nastin, A.S.Xuxrin, V.N.Samaruxa kabi olimlarning ishlarida, jumladan, iqtisod fanlari doktori M.Raxmatovning ishlarida tahlil qilingan va asoslangan.

Biroq, shuni ta'kidlash kerakki, Respublikamizda yangi tashkil etilayotgan va faoliyat ko'rsatayotgan klasterlarda qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish uchun qishloq xo'jaligi texnikalari parki, soni, tarkibi, ulardan samarali foydalanish, jumladan, yuqori quvvatli traktorlarning imkoniyati darajasida mashina traktor agregatlarini tuzish, yuqori quvvatli traktor va zamonaviy qishloq xo'jalik mashinali energiyatejamkor agregatni maqbul tuzishni hisoblash, energiya vositasi va aggregatlanadigan qishloq xo'jaligi mashinasini tanlash usullari, muayyan ish sharoitida bajarishi kerak bo'lgan texnologik operatsiyaning zarur sifati, maksimal ish unumi va minimal yonilg'i iste'molini ta'minlash, ya'ni minimal energiya sarflashga erishish mumkinligini ochib beradigan masalalar hali yetarli darajada yoritilmagan [8].

Shuning uchun “Klaster” tizimi yagona texnologik zanjirga birlashtirilgan korxonalar majmui ilm-fan, ta'lim hamda ishlab chiqarish integratsiyasini chuqurlashtirish, yangi innovatsion texnologiyalarni amaliyotga jadal joriy etishni taqazo etadi.

Ayniqsa, xorijiy va mavjud qishloq xo'jaligi texnikalari parkini innovatsion texnik tizimlar asosida boshqarish va ulardan foydalanish darajasini oshirish uchun yangi texnologik va texnikaviy xizmatlar ko'rsatish tizimlarini yaratish va ularni boshqarishni tartib va qoidalarini ishlab chiqish dolzARB masala hisoblanadi.

Buning uchun paxtachilik-to'qimachilikka ixtisoslashgan klasterlarning qishloq xo'jalik texnikalari parkini innovatsion texnik tizimlar asosida boshqarish xozirgi davrda zarur va maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu tizimlarga texnikaviy xizmatlar ko'rsatish (texnikalardan foydalani, reglamentli texnik xizmat ko'rsatish, saqlash), texnik servis (dilerlik) ko'rsatish (mobil va muqim xizmatlar ko'rsatish, ehtiyyot qismlar bilan ta'minlash), texnikalarni qayta tiklash (nosoz texnikalarni sotib olish, butlash va qayta sotish, detallar va ehtiyyot qismlar resursini tiklash, detallar va ehtiyyot qismlarni almashtirish va sotish), ilm-fan va ishlab chiqarishni integratsiyalash (innovatsion texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishda qo'llash, ilm-fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish, yangi innovatsion texnika va texnologiyalarni targ'ib etish) bo'limlarini joriy etish zarur.

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida “Klaster” tizimida qishloq xo'jaligi texnikalari parkini innovatsion texnik tizimlar asosida boshqarish, texnologik va texnikaviy xizmatlar ko'rsatish mexanizmini takomillashtirish, malakali kadrlarni jalg etish mexanizmini o'zida aks etgan paxtachilik-to'qimachilikka ixtisoslashgan klasterlarning qishloq xo'jaligi texnikalari parkini innovatsion texnik tizimlar asosida boshqarish sxemasi tavsiya etiladi.



“Klaster” tizimida qishloq xo'jaligi texnikalari parkini innovatsion texnik tizimlar asosida boshqarishni samarali hal etishda zamonaviy kompyuter va boshqarish tizimlari bilan jixozlangan texnikalarni innovatsion texnik tizimlar asosida boshqaradigan yuqori malakali muhandis-mexaniklarni tayyorlash zarur. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining yangi bosqichga o'tish davrida ish beruvchilarning, jumladan, “Klaster” tizimining ushbu darajadagi kadrlarga bo'lgan talabi sezilarli darajada oshishi muqarrar bo'ladi.

Ishlab chiqarish sharoiti tahlillari natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu sohadagi yuqori malakali mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj har bir klasterda yiliga kamida 5-10 kishini tashkil etib, barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lishi bashoratlanmoqda.

Bunda paxtachilik-to'qimachilikka ixtisoslashgan klasterlarning texnik tizimlariga texnikaviy xizmatlar ko'rsatish, texnik servis (dilerlik), texnikalarni qayta tiklash, ilm-fan va ishlab chiqarishni integratsiyalash tizimlari kirishi tavsiya etiladi.

Har bir tizim o'zining bo'limlariga ega bo'lib, tizimlarni mukammal faoliyat ko'rstishini (funksiyasini) ta'minlaydi.

Texnikaviy xizmatlar ko'rsatish tizimi texnikalardan foydanish, texnikalarga reglamentli xizmat ko'rsatish va texnikalarni saqlash bo'limlarini o'z ichiga oladi. Texnikalardan foydanish bo'limi parkdagi yuqori unumli (traktorlar, g'alla kombaynlari, paxta terish mashinalari va boshqa) agregatlar yordamida ko'p energiya talab etiladigan

agrotexnik tadbirlarni (yer xaydash, tirmalash, chuqur yumshatish, ekinlar hosilini yig‘ishtirib olish va boshqalar) shartnomaga asosida bajarish faoliyati bilan shug‘ullanadi. Texnikalarga reglamentli xizmat ko‘rsatish bo‘limi texnikalar parkini yaroqli bo‘lishini, foydalanish jarayonida sodir bo‘lgan nosozliklar va talab etiladigan sozlashlarni operativ bajarilishini ta’minlash faoliyati bilan shug‘ullanadi. Texnikalarni saqlash bo‘limi parkdagi traktor va qishloq xo‘jaligi mashinalarini mavsum tugagandan keyin qisqa yoki uzoq muddatga saqlashga tayyorlash, saqlash davrida va saqlashdan olishda malakali texnik xizmat ko‘rsatish faoliyati bilan shug‘ullanadi.

Texnik servis (dilerlik) tizimi mobil va muqim xizmat ko‘rsatish hamda ehtiyyot qismlar bilan ta’minlash bo‘limlarini o‘z ichiga oladi. Mobil xizmat ko‘rsatish bo‘limi yuqori unumli (traktorlar, g‘alla kombaynlari, paxta terish mashinalari va boshqa) agregatlar bilan dala sharoitida agrotexnik tadbirlarni bajarish jarayonida sodir bo‘lgan buzilish, sinish, ishlamay qolish kabi nosozliklarni maxsus jixozlargan ko‘chma ustaxonalar va avtovositalar yordamida operativ bartaraf etish faoliyati bilan shug‘ullanadi. Muqim xizmat ko‘rsatish bo‘limi dala sharoitida bartaraf etish qiyin, murakkab bo‘lgan nosozliklarni statsionar sharoitda malakali mutaxassislar, zamonaviy qurilma va asbob uskunalaralar yordamida bartaraf etish faoliyati bilan shug‘ullanadi. Ehtiyyot qismlar bilan ta’minlash bo‘limi qishloq xo‘jaligi texnikalari parkida sodir bo‘ladigan nosozliklar va ularni kelib chiqish sababalari monitoringini olib boradi, tahlil qiladi va ehtiyyot qismlar zaxirasining to‘la ta’minotini boshqaradi.

Texnikalarni qayta tiklash tizimi nosoz texnikalarni sotib olish, butlash va qayta sotish, detallar va ehtiyyot qismlar resursini tiklash va detallar va ehtiyyot qismlarni almashtirish va sotish bo‘limlarini o‘z ichiga oladi. Nosoz texnikalarni sotib olish, butlash va qayta sotish bo‘limi to‘la ixtisoslashgan, barcha material texnik baza bilan ta’milangan holda nosoz texnikalarni sotib olish, bo‘laklash, yig‘ish, butlash va qayta sotish faoliyati bilan shug‘ullanadi. Detallar va ehtiyyot qismlar resursini tiklash bo‘limi to‘la ixtisoslashgan, barcha material texnik baza bilan ta’milangan holda nosoz texnikalarni bo‘laklash, yig‘ish, butlashda zarur detallar va ehtiyyot qismlarni resursini tiklash faoliyati bilan shug‘ullanadi. Detallar va ehtiyyot qismlarni almashtirish va sotish bo‘limi resursi tiklangan detallar va ehtiyyot qismlarni sotish va resursi tiklanadigan detallar va ehtiyyot qismlarni yig‘ish faoliyatini olib boradi.

Ilm-fan va ishlab chiqarishni integratsiyalash tizimi innovatsion texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishda qo‘llash, ilm-fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish va yangi innovatsion texnika va texnologiyalarni targ‘ib qilish bo‘limlarini o‘z ichiga oladi. Innovatsion texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishda qo‘llash bo‘limi xududning tabiiy iqlim sharoiti, yer maydonlari parametrlari va ishlab chiqariladigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari turlariga mos keladigan yangi innovatsion texnika va texnologiyalarni iqtisodiy va texnik jihatdan tahlil qilish, tanlash hamda ishlab chiqarishda qo‘llash faoliyati bilan shug‘ullanadi. Ilm-fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish bo‘limi energiya va resurstejamkorlikka asoslangan yangi texnik yechimlarni topish, ekspertiza qilish

qilish, saralash, tanlash va ishlab chiqarishga etiy etish faoliyati bilan shug‘ullanadi. Yangi innovatsion texnika va texnologiyalarni targ‘ib etish bo‘limi mamlakatimizda va xorijda yaratilgan innovatsion texnologiyalar va texnikalarni targ‘ib etish (reklama), ko‘rgazmalar tashkil etish, texnikalarni sotib olish va yetkazib berish bo‘yicha shartnomalar tuzish faoliyati bilan shug‘ullanadi.

Faoliyat ko‘rsatish davrida orttirgan tajribalar, texnik-iqtisodiy, ijtimoiy faoliyat darajasiga qarab tizimlar soni, tizimlardagi bo‘limlar soni takomillashtirilishi, yangi bo‘limlar ochilishi yoki qisqarishi, shunga mos xolda malakali kadrlarga bo‘lgan talablar ham o‘zgarishi mumkin.

Xulosalar.

1. Respublikamiz klasterlari sharoitida qishloq xo‘jaligi texnikalari parkini innovatsion texnik tizimlar asosida boshqarish va texnikaviy xizmatlar ko‘rsatish mexanizmini takomillashtirish kabi namunaviy xizmat ko‘rsatish tizimini yaratish dolzarb hisoblanadi.

2. Qishloq xo‘jaligi texnikalari parkini boshqaruv tizimini takomillashtirishda texnikaviy xizmatlar ko‘rsatish, texnik servis (dilerlik), texnikalarni qayta tiklash va ilm-fan va ishlab chiqarishni integratsiyalash tizimlari faolyatini ixtisoslashtirishni amalga oshirish bo‘yicha innovatsion taklif va tavsiyalar taqdim etiladi.

3. Texnik jihatdan zamonaviy, o‘ta murakkab konstruksiyaga ega bo‘lgan qishloq xo‘jaligi texnikalari parkini samarali boshqarishning texnik servis va innovatsion texnologiyalar asosida amalga oshirish uslubi tavsiya etiladi.

4. Qishloq xo‘jaligi texnikalari parkini innovatsion texnik tizimlar asosida boshqarish, texnologik va texnikaviy xizmatlar ko‘rsatish mexanizmini takomillashtirish, malakali kadrlarni jalb etish mexanizmini tumanlar miqyosidagi namunaviy Servis Markazlarida ham joriy etish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar

1. “Qishloq xo‘jaligini o‘z vaqtida qishloq xo‘jaligi texnikasi bilan ta’minalash mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.05.2018 yil PQ-3712 son qarori.

2. “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarga mexanizatsiya va servis xizmatlarini ko‘rsatish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-maydagagi PQ-3751 son qarori.

3. “Qishloq xo‘jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta’minalashni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 31-iyuldagagi PQ-4410-sun qarori.

4. Igamberdiev A., Yo‘ldoshev Sh. Qishloq xo‘jaligi texnikasidan samarali foydalanish, texnik xizmat ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish muammolari/ Agrosanoat majmuasi uchun fan, ta’lim va innovatsiya, muammolar va istiqbollar mavzusidagi Xalqaro ilmiy-

amaliy anjumani maqolalar to‘plami. (1-týplam). Toshkent. TIQXMMI, 22-23 noyabr 2019 yil, 404-410 b.

5. Igamberdiev A., Aliqulov S., Yo‘ldoshev Sh.U. Qishloq xo‘jaligi texnikalari parkidan samarali foydalanish va texnikaviy xizmatlar ko‘rsatish mexanizmini takomillashtirish/ Agrosanoat majmuasi uchun fan, ta’lim va innovatsiya, muammolar va istiqbollar mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to‘plami. (1-týplam). Toshkent. TIQXMMI, 22-23-noyabr 2019-yil, 411-419 b.

6. Igamberdiev A., Begaliev A., Usmanov E. Qishloq xo‘jaligi texnikasi parkidan samarali foydalanish va texnikaviy xizmatlar ko‘rsatish tizimini takomillashtirish/ Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining 2021, 25-26-maydagi XX – Yosh olimlar, magistrantlar va iqtidorli talabalarning ilmiy-amaliy anjumani maqollar to‘plami. Toshkent, TIQXMMI, 2021.- 6 b.

7. AK Igamberdiyev, N Kholikova, B Khakimov, E Usmanov, G Usmanova, A Sh Begaliyev. Efficient use of agricultural machinery park and improvement of technical services system. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. 996 (2022) 012015. 7 p.

8. Igamberdiev A.K., Xaliquova N.A., Razikov N.B., Usarov O.E. Yuqori quvvatli traktor va zamonaviy qishloq xo‘jalik mashinali energiyatejamkor agregat tarkibini asoslash/№4(22).2020 Journal "Irrigatsiya va melioratsiya"73-77 b.

A.A. Mamajonov

Andijon mashinasozlik instituti
“MSMSM” kafedrasi k.f.n. dotsent

Z.F. Xamrakulova

Andijon mashinasozlik instituti
“MSMSM” kafedrasi tayanch doktoranti
zarnigorxamrakulova140@gmail.com

SIFAT MENEJMENTINING SODDA STATISTIK USULLARI

ПРОСТЫЕ СТАТИСТИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ

SIMPLE STATISTICAL METHODS OF QUALITY MANAGEMENT

Annotatsiya

Ushbu maqolada sifat menejmenti jarayonlarini takomillashtirishning sodda statistik metod (usul)lari yoritilgan. Maqlada ushbu metodlarni qo‘llash sifat menejmenti tizimlari ning takomillashda qanday natijalar berishi keltirilgan.

Аннотация

В этой статье подробно рассматриваются статистические методы улучшения процессов управления качеством. В статье представлены результаты применения этих методов на предприятии.